

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARI BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY TAJIRIBADAN FOYDALANISH YO'LLARI

Rahimova Zilola Shodiyorovna,

Toshkent shahar Puchon Universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorida boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirishda xorijiy tajribadan foydalanish yo'llari masalalari, direktorning boshqaruv kognitiv qobiliyatlarini o'rganish va ko'nikma darajasida ishlab chiqilgan bilimlarni sharhlash uchun foydalanish bilan bevosita bog'ligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, kompetensiyalar, liderlik, notiqlik, tanqidiy fikrlash, tahlil qilish ko'nikmalari, muammo, yechim topish, qaror, xorij tajribasi, tadqiqotlar.

Abstract: This article discusses the issues of using foreign experience in improving the management competencies of the director of a preschool educational organization, their direct connection with the study of the director's management cognitive abilities and their use for interpreting the knowledge developed at the skill level.

Keywords: management, competencies, leadership, oratory, critical thinking, analytical skills, problem, solution, decision, foreign experience, research.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorida boshqaruv kompetensiyalari: liderlik, notiqlik, tanqidiy fikrlash, tahlil qilish ko'nikmalari, muammoga yechim topish, to'g'ri qaror qabul qilish kabi tushunchalar mavjud.

Maktabgacha talim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda o'z ustida ishlashi, o'z o'zini rivojlantirishi, o'z faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish, ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Direktorlarning boshqaruv kompetensiyalari o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

Maktabgacha talim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda ko'plab qiziqarli va foydali kitoblar mavjud. Bir necha mashhur asarlarni keltirib o'taman:

1. Xasanov Otabek. «Liderlar kitobi»

Ushbu kitob aynan lider sifatida oilasida, karerasida va jamiyatda yuksak muvaffaqiyatlarga erishmoqchi bo'lganlar uchun. Ushbu kitobda o'quvchilarga etakchilik qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan foydali maslahatlar va mashqlar mavjud, shuningdek, juda ko'p yangi g'oyalar, hayotga teran nazar bilan qarash, g'oliblikka intilish, saodat va komillik uchun dadil qadam

tashlash, jasurlik va mardlik kabi insoniy fazilatlarni o'zida shakllantirish, Vatan rivojiga, uning iqtisodini yuksaltirishga astoydil kirishish, aql-zakovatni, ilmni har qanday ishdan ustun qo'yish kabi holatlar mujassam bo'lgan. Unutmang, Lider degani, avvalo, doimo o'z ustida ishlaydigan va o'zgalarga yordam qo'lini cho'zadigan insondir. O'quvchilar e'tiboriga havola qilinayotgan ushbu kitob davlat xizmatchilari, xususiy sektor vakillari, yosh olimlar, talaba va bo'lajak Liderlar hayot yo'lida ko'makchi bo'ladi, deb o'ylaymiz.

2. Djon K.Koulman "Liderlik va strategik ideyalar" kitobi. Kitobda liderlik va strategik boshqaruvning asosiy prinsiplari, amaliyotlari va strategiyalari haqida ma'lumot beradi. Unda mualliflar liderlar uchun samarali qarorlar qabul qilish, rahbarlik qilishda strategik fikrlash nifosini rivojlantirish va tashkilotlarning uzluksiz rivojlanishini ta'minlash uchun kerakli tadbirlarni talab qiluvchi muhim konsepsiyalarni tahlil qilishadi.

Kitobda asosiy e'tibor shaxsning liderlik qobiliyatlarini qanday rivojlantirish, ta'sirchan va qobiliyatli jamoa tuzish, kreativ strategik rejalarini ishlab chiqish hamda o'zgartirishlar bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan.

3. Saymon Sinekning "Liderlik hunari" kitobi rahbarlikning teren psixologik ifodasi va muvaffaqiyatli ta'rifini taklif etadi. Unda muallif rahbarlar uchun xos bo'lgan asosiy prinsiplar, strategiyalar va dalillarni keltiradi, og'ir vaziyatlarda qanday qilib samarali qaror qabul qilish, jamoa bilan aloqani mustahkamlash va iqtidorni rivojlantirish haqida ma'lumot beradi.

Kitobda Sinek "Nima uchun?" (Why) konsepsiyasini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, samarali rahbarlik nafaqat "Nima?" (What) va "Qanday?" (How) savollariga, balki birinchi navbatda "Nima uchun?" savoliga javob berishdan boshlanishi kerak. U insonlarning hissiy holatlari, ish bilan bog'liq moslashuvchanlik va yaratuvchanlikni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi.

Sinek jamoa hamda tashkilotlarning o'zgarishi va rivojlanishida muhim bo'lgan "ittifoq" to'g'risida so'z yuritadi, insonlar o'rtasida ishonch, hamkorlik va ijodkorlik muhitini yaratishga e'tibor qaratadi. Kitob amaliyotda qo'llanilishi va har qanday sohadagi rahbarlar uchun foydali bo'lishi mumkin.

"Liderlik hunari" – jamoalar va tashkilotlarda muvaffaqiyatga erishish uchun kerakli real bilimlarni va tushunchalarni yuzaga chiqargan asar, bu uni o'quvchilar uchun alohida qimmatli qilish darajasini ta'minlaydi.

Mazkur asar metodologik ko'rsatmalar, voqeotlardan kelib chiqarilgan misollar va strategik o'ylash usullari bilan boyitilgan, shundan kelib chiqib, kitob rahbarlar, murabbiylar va bu sohaga qiziquvchilar uchun foydali resurs hisoblanadi. Ushbu kitob sizga tashkilotlarda muvaffaqiyatli rahbar bo'lish uchun kerakli bilim va ko'nikmalarni olishga yordam beradi.

4. Stiven Kovining "Liderlar uchun 7 odat" kitobi, samarali liderlik va shaxsiy rivojlanish uchun muhim konsepsiyalarni tahlil qiladi. Kovi bu kitobda hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan yetti muhim odatni ta'riflaydi. Ushbu odatlar shaxsning ichki aniqligini, munosabatlarni mustahkamlashni va samarali maqsadga erishishni o'z ichiga oladi.

Kitob liderlarga ma'naviy, ularning rivojlanishida real va samarali takliflarni taqdim etadi. Ushbu odatlarni amaliyotga joriy qilish odamlar orasida mustahkam munosabatlarni o'rnatish va jamiyatga foydali bo'lishga yordam beradi.

Maktabgacha talim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish haqida xorij tajribasi talaylab tadqiqotlar, kitoblar va amaliyotlarda o'rganilgan. Boshqa mamlakatlardagi liderlik modeli va konsepsiyalari turlicha va haqiqatan ham qiziqarli. Keling, ba'zi muhim tajribalarni ko'rib chiqamiz:

1.Tashkilotlarning qiymati: AQShda Saymon Sinek, Djon Maksvell va Brene Braun kabi mualliflar maktabgacha talim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish jamoa ichida ishonch va hamkorliklashuvni rivojlantirish orqali yuksaltirishga e'tibor qaratishadi. Ularning ta'rificha, yaxshi direktorlar "nima uchun" savoliga aniq javob berishlari va jamoa a'zolarini o'z maqsadlari bilan birlashtirishi kerak.

2.Servant-ohir madaniyati: Yaponiyada "servant-ohir" (servant leadership) usuli keng tarqalgan. Bu o'ta sohali yondashuv bo'lib, unda rahbarlar xizmat qilishni o'z vazifalari sifatida qabul qilishadi. Ushbu konsepsiya jamoa a'zolarining ehtiyojlarini birinchi o'ringa qo'yadi va ularni rivojlantirishga yordam beradi.

3.Kanadali trendlar: Kanadada, xususan, inklyuziv boshqaruv kompetensiyalari muhim ahamiyatga ega. Bunda barcha odamlarning fikrlari va nuqtai nazarlarini qo'llab-quvvatlash, turli madaniyatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish va tenglikka e'tibor qaratiladi.

4.Ko'nikmalar va o'qitish: Maktabgacha talim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda xorijda juda ko'p dasturlar va resurslar mavjud. Masalan, MBA dasturlari, trening seminarlari, kouching va mentorlik to'g'risidagi dasturlar keng tarqalgan.

Xorij tajribalari o'zgaruvchan va xalqaro asosda o'rganilayotgani bilan, ular mahalliy shartlarga moslashish va yangi qarashlar bilan boyitilishi mumkin. Maktabgacha talim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatida eng muhimi – samarador, ijodiy va innovativ yondashuvlarni joriy qilishdir.

XXI asr ko'nikmalari zamonaviy dunyo talablariga moslashish uchun zarur bo'lgan yangi turdagi malakalar va qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Bu ko'nikmalar insonlar va tashkilotlarning raqamli davrda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun muhim. Texnologik rivojlanish, globallashuv, ish bozoridagi talablarning

tezkor o'zgarishi va jadal o'zgarayotgan turmush tarzi XXI asr ko'nikmalariga ehtiyojni oshirgan.

Maktabgacha talim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv kompetensiyalari xodimlarni umumiy maqsad atrofida birlashtirib, ularni samarali boshqaradi.

Motivatsiya berish: Xodimlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish orqali jamoaviy ruhni mustahkamlaydi.

O'rnak bo'lish: va unda o'zi ham ishtirok etib boradi.

Aslida ularning barchasi bir maqsad yo'lida xizmat qiladi. Shuning uchun boshqaruv kompetensiyalari o'rtasida katta tafovutni aniqlash mushkul. Ularning vazifasi ham, mas'uliyati ham, xususiyatlari ham teng. Shunday bo'lishiga qaramasdan ulardan biri rasmiy boshqasi esa norasmiy hisoblanadi. Rahbar rasmiy, ya'ni qonunga muvofiq shu lavozimga tayinlangan. Boshqaruv kompetensiyalarga ega bo'lish bu uning qobiliyati, xulqi, ma'naviyatiga bog'liq. Maktabgacha talim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv kompetensiyalari direktorni boshqalardan ajratib turuvchi asosiy tomonlaridan biri - bu direktorning eng avvalo, o'ziga va unga ergashayotgan safdoshlariga bo'lgan ishonchi. Buyuk allomalarimiz aytganidek, o'z kuchingni his etishing kuchingga kuch qo'shadi. Direktor hamma vaqt biror bir ishni boshlashdan avval atrofida gilar bilan maslahatlashishi va unga yuklatilgan topshiriqlarning bir qismini ularga ishonib topshirishi darkor. Bu bilan u o'z izdoshlariga bo'lgan ishonchi yuqorida darajada ekanligini isbotlab bergan bo'ladi.

Direktorning o'ziga xos muhim jihatlaridan biri - bu optimistik ruhda fikr yuritishida, ya'ni har bir ko'zlagan maqsadni faqat yaxshi tomonlarini o'ylab ish ko'rishidir. Yana u to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatiga ega hisoblanadi. Ba'zilar uzoq o'ylab qarorlarini bir necha marta o'zgartirishsa, lider bir marotaba qaror qabul qiladi va o'z qaroridan hech qachon shubhalanmaydi. Shu sababdan liderlarni kelajakni ko'ra olish qobiliyatiga ega deyishadi. Ammo ular bunday kuchga ega emaslar.

Direktor o'zining kuchli va ustun jihatlarini yaxshi biladi hamda imkon qadar ulardan unumli foydalanishga intilishi lozim. Shu bilan birga u o'zining kuchsiz tomonlarini ham tan ola bilishi va ularni zaifligicha qoldirmaslik yo'lida to'g'irlashga harakat qilishi zarur.

Tan olishimiz va ta'kidlashimiz joiz, yangi O'zbekistonni zamonaviy bilim va yangicha dunyoqarashga ega, kreativ fikrlovchilar barpo etadi.

Maktabgacha talim tashkilotlari direktorlarining XXI asr rahbariga xos bo'lgan asosiy ko'nikmalari boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish hozirgi vaqtda maktabgacha tizim oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Xulosa qilinganda, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorida boshqaruv kompetensiyalarni rivojlantirishda shaxslararo muloqot ko'nikmalari: ular

atrofdagilarga ijobiy munosabatda bo'lish, ular bilan muloqot qilish, ularga ta'sir qilish va ilhomlantirish imkonini beruvchi ko'nikmalarni nazarda tutadi. Bunga ba'zi misollar: boshqaruvchilik, liderlik va yetakchilik, murabbiylik ko'nikmalari, tinglash qobiliyatlari, hamkorlikda ishlash qobiliyatlari, o'zini-o'zi namoyon etish qobiliyatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Mirziyoyev SH.M. Tanqqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent.: "O'zbekiston", 2017 y.
- 2.Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi - Toshkent: "O'zbekiston", 2019.
- 3.Amir Temur. Temur tuzuklari. -T.:Shark,, 1995.
- 4.Forobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994.
5. Vladimir Kvint. Strategiyalash nazariyasi va amaliyoti,- Toshkent: Tasvir. 2018.
- 6.Xasanov Otabek. «Liderlar kitobi» "Muharrir nashriyoti" Toshkent, 2020.T.: 2020